

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA YANGICHA ISLOHOTLAR

*Navoiy davlat universiteti tarix fakulteti
dotsenti **Daminov Nabijon Abduolimovich***

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan ishlar va ortirilgan tajribalar hamda Prezident Shavkat Mirziyoyevning tibbiyot sohasida qilinishi kerak bo‘lgan ustuvor vazifalar to‘risida fikr yuritilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается проделанная работа в сфере здравоохранения в Новой Республике Узбекистан и накопленный опыт, а также приоритеты Президента Шавката Мирзиёева в сфере медицины.

Abstract: This article discusses the work done in the field of health care in the New Republic of Uzbekistan and the experiences gained, as well as the priorities of President Shavkat Mirziyoev in the field of medicine.

Yurtimiz hududida qadimdan ko‘plab shifo maskanlari, tibbiy madrasalar faoliyat yuritgani, Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkir bobolarimiz yaratgan bebaho asarlar, ularning dori – darmon tayyorlash va davolash usullari butun jahonda mashhur bo‘lgan ajdodlarimizning bu soha rivojiga qanday katta e’tibor qaratganligidan dalolat beradi.

Kirish

Sihat-salomatlik har bir inson, butun aholimiz uchun hech narsa bilan ulchab, baholab bulmaydigan buyuk ne’matdir. Faqat sog‘lom inson va sog‘lom xalq mislsiz ishlarga qodirligini hammamiz yaxshi anglaymiz. Imom Buxoriy Ibn Abbos roziyallohu anhumodan rivoyat qilgan hadisi sharifda Nabi sollallohu alayhi vasallam: “Ikki ne’mat borki, ko‘p odamlar ularda aldanib qoladilar. Ular sog‘lik va farog‘atdir”¹, deganlar. Mashhur yunon tabibi Gippokratning tabobat - barcha ilmu xunarlar orasidagi eng buyuk ilm va ezgu kasbdir, degan so‘zlari sog‘liqni saqlash sohasi xodimlarining mashaqqatli va sharaflil faoliyatiga berilgan haqqoniy bahodir. Ma’lumki, kasallikni davolashdan ko‘ra, uning oldini olish oila uchun ham, davlat uchun ham samarali va foydalidir. Shu bois mamlakatimizda profilaktik tibbiyot rivojiga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. **Buyuk ajdodimiz Imom Moturidiy hazratlarining Tiriklik hikmatini sog‘likda, deb bilgin**, degan chuqur ma’noli so‘zlari naqadar to‘g‘ri ekanini hayotning o‘zi bugun qayta- qayta isbotlamoqda.

¹ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Olam va odam, din va ilm. T.: “Hilol – nashr”, 2023 - B.- 169.

Yangi O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash sohasini qonuniy jihatdan mustahkamlab qo‘yilgan, Konstitutsiyamizning 48 moddasida “Har kim sog‘lig‘ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli. Davlat sog‘liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini, tibbiy sug‘urtaning har xil turlarini rivojlantirish, aholining sanitariya – epidemologik osoyishtaligini ta’minlash choralarini ko‘radi. Davlat jismoniy tarbiya va sport rivojlantirish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uchun shart – sharoitlar yaratadi”², deb belgilab qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasida 1991 – 2016 yillari sog‘liqni saqlash sohasida o‘z echimini kutayotgan muammolar yig‘ilib qolgan edi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan sog‘liqni saqlash sohasida islohotlar olib borilmoqda. 2020 yilda jahon mamlakatlarida sog‘liqni saqlash sohasida bir qator salbiy oqibatlarni keltirgan ko‘plab insonlarni umriga zomin bo‘lgan “Koronavirus pandemiyasi”ga qarshi ko‘rashni tizimli ravishda kurash olib borildi.

O‘zbekiston Respublikasida “2021 yildan boshlab 15 yoshgacha bo‘lgan bolalar va xomilador ayollarga 7 turdagi vitaminlar, bolalar uchun parazitar kasalliklarga qarshi dori vositalari bepul tarqatilmoqda. Bu jarayon bilan 2021 yilda - 11 million nafar, 2022 yilda - 17 million nafar aholi qamrab olindi. Ayollar va bolalarni yod, temir, foliy kislotasi, vitaminlar va parazitlarga qarshi dorilar bilan bepul ta’minlash orqali aholi o‘rtasida kamqonlik 25 foizga kamaytiriladi”³.

Bugungi kunda, onalar va bolalar, reproduktiv yoshdagi ayollar salomatligini ta’minlash uchun zarur dori va tibbiyot vositalari (S vitamin, surfaktant va boshqalar) bilan qo‘shimcha ta’minlash uchun davlat byudjetidan 2021 yilda 26 milliard so‘m ajratilishi, 2022 yildan boshlab esa ushbu harajatlarni uchun zarur mablag‘larni davlat byudjeti parametrlarida ko‘zda tutish belgilandi. Bundan tashqari, homilador ayolning eng erta muddatlarda hisobga olinishi, uning har kungi holatidagi o‘zgarishlarni kompleks nazorat qilib borish uchun 2021 yil yakuniga qadar yagona elektron baza yaratildi. Tibbiyotning birlamchi bo‘g‘inini ko‘chaytirish, ayniqsa, qishloq va mahallalarda tibbiy xizmatni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish zarurligi belgilandi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning topshirig‘i asosida bu borada birlamchi bo‘g‘inda umumiy amaliyot shifokori o‘rniga oilaviy shifokor va unga yordamchi sifatida 5 nafar o‘rta tibbiyot xodimidan iborat tibbiy brigadalar tashkil etildi. Har bir mahallada, eng avvalo, 5 yoshgacha bolalar, shuningdek, tug‘ish yoshidagi va homilador ayollar, nogironligi bo‘lganlar, qon-tomir, onkologik kabi kasalliklarga moyilligi bo‘lgan fuqarolar bilan ishlashning alohida tizimi joriy etildi.

² O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: “O‘zbekiston”, 2023. - B- 29-30.

³ Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T.: “O‘zbekiston”, 2022. - B.- 211-212.

Shu bilan birga, davlat tomonidan bepul tibbiy xizmatlar va dori vositalari ro'yxati qayta shakllantirilib, ular bilan aholini kafolatli ta'minlash tizimi bosqichma-bosqich yo'lga qo'yildi. Shuningdek, tibbiy xizmatlar ko'rsatishda birlamchi bo'g'in qamrovini kengaytirish maqsadida "2022 -2025 yillarda 315 ta "oilaviy shifokor" punkta va 85 ta oilaviy poliklinika ishga tushiriladi". Bundan tashqari, davlatimiz tomonidan "qishloq, shifokori" dasturi doirasida olis hududlarda ish boshlaydigan mingdan ortiq, vrachga 30 million so'mdan yordam puli berilib, ular xizmat uylari bilan ta'minlanmoqda"⁴. Oq qon va og'ir irsiy gematologik kasalliklarni davolash bo'yicha ishlar yuqori bosqichga ko'tarildi. Onko-gematologiya sohasi hamda davolash qiyin bo'lgan kasalliklar bo'yicha murakkab diagnostika va tibbiy amaliyotlar uchun davlat byudjetidan yetarli mablag'lar ajratilib borilmoqda.

Utkir buyurak yetishmovchiligi bo'lgan barcha bemorlar bepul gemodializ xizmati bilan qamrab olindi. Shuningdek, endokrin kasalliklarni aniqlash va davolash maqsadida hududiy shifoxonalarda maxsus bo'limlar tashkil etildi. Yana bir masala – "Aholimizning katta qismini qiynaydigan utkir qon-tomir kasalliklari buyicha 35 ta tumanlararo markaz tashkil etilmoqda. Ushbu markazlar aholiga infarkt va insult holatlarida tezkor va malakali tibbiy yordam ko'rsatish orqali ulim va nogironlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu tariqa har yili kamida 30 ming nafar inson hayotini saqlab qolish nazarda tutilmoqda. Sog'liqni saqlash tizimida samaradorlik va aholiga qo'layliklarni oshirish bo'yicha hali ko'p ish qilish kerak. Joylarda o'tkazilgan so'rovlarda bor-yug'i 13 foiz aholi tibbiyotdagi ijobiy o'zgarishlarni sezayotganini aytgan xolos va ushbu sohadagi ishlar samarasining yuksalishiga imkon bermayotgan qator tizimli muammolar borligidan dalolat beradi. 2021 yildan boshlab 15 yoshgacha bo'lgan bolalar va homilador ayollarga 7 turdagi vitaminlar, bolalar uchun parazitlar kasalliklarga qarshi dori vositalari bepul tarqatiladi. Bu jarayon bilan 2021 yilda – 11 million nafar, 2022 yilda – 17 million nafar aholi qamrab olinadi va bu ishlarga 100 milliard so'm mablag' yo'naltiriladi. Ayollar va bolalarni yod, temir, foliy kislotasi, vitaminlar va parazitlarga qarshi dorilar bilan bepul ta'minlash orqali aholi o'rtasida kamqonlik 25 foizga kamaytiriladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev sog'liqni saqlash sohasi rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan holatlarga barham berish va mavjud muammolarni bartaraf etish borasida ustuvor vazifalar qilib qo'yidagilardan belgilab berdi: 1) sog'liqni saqlash sohasidagi milliy qonunchilikni unifikatsiyalash hamda tibbiy xizmat sifatini oshirish va bemorlar huquqlarini himoya qilish; 2) tibbiyot xodimlarining mas'uliyati va himoyalanganligini kuchaytirishga qaratilgan tug'ridan- tug'ri ta'sir qiluvchi qonunlarni qabul qilish orqali takomillashtirish; 3) jahon standartlari asosida menejment va tibbiy xizmatlar sifatini boshqarishning eng namunal amaliyotlarini

⁴ Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T.: "O'zbekiston", 2022.- B.- 213.

joriy etishni ta'minlaydigan zamonaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish; 4) hududlarda sog'liqni saqlashni tashkil etishning "klaster" modelini shakllantirish, tibbiyot va farmatsevtika muassasalarini akkreditatsiya qilish, shifokorlik va farmatsevtik faoliyatni litsenziyalash tizimini joriy etish; 5) tibbiyot sohasini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy yordam hajmini belgilashda mahalliy xususiyatlarni hisobga olish; 6) tibbiy xizmatlar uchun klinik-harajat guruhdari bo'yicha "har bir davolangan holat" uchun to'lash tizimini hamda kishi boshiga moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini joriy qilish, shuningdek, majburiy tibbiy sug'urtani bosqichma-bosqich joriy etish; 7) tibbiy yordamning samaradorligi, sifati va ommabopligini oshirish, shuningdek, tibbiy standartlashtirish tizimini shakllantirish, tashxis qo'yish va davolashning yuqori texnologik usullarini joriy etish; 8) patronaj xizmati va dispanserizatsiyaning samarali modellarini yaratish orqali sog'lom turmush tarzini qo'llab-kuvvatlash va kasalliklarni profilaktika qilish; 9) tibbiy genetikani, ayollar va bolalarga shoshilinch va ixtisoslashgan tibbiy yordamni rivojlantirish asosida, zamonaviy skrining dasturlarini joriy etish, "Ona va bola" hududiy ko'p tarmoqli tibbiyot majmualari va ma'lumotlar tizimlarini shakllantirish asosida onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish; 10) farmatsevtika tarmog'ini yanada rivojlantirish, narx shakllanishi mexanizmlarini takomillashtirish, dori vositalari, tibbiy texnika va buyumlar ishlab chiqarish hajmi va turlarini kengaytirish.

Xulosa

Sog'liqni saqlash tizimida pandemiya davrida orttirgan tajriba hamda xorijdagi ilg'or yutuqlardan foydalanib, aholi salomatligini asrash va musathkamlash borasidagi tub islohotlarni yangi bosqichga ko'tarildi. Bunda aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish eng ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lomoda. Pandemiya saboqlaridan kelib chiqqan holda, tibbiyot sohasini raqamlashtirish ko'lami yanada kengaytirildi. Jumladan, barcha tibbiyot muassasalarida masafoviy xizmatlarni ko'paytirish, poliklinika va shifoxonalarni elektron ish yuritishga o'tkazish choralari ko'rildi. Shuningdek, ixtisoslashgan tibbiyot markazlari va ularning filiallari o'rtasida telemeditsina yo'lga qo'yilib, diagnostika va davolash uchun joylardagi imkoniyatlar yanada kengaytirildi.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: "O'zbekiston", 2023.- 118 – bet.
2. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T.: "O'zbekiston", 2022.- 438 – bet.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Olam va odam, din va ilm. T.: "Hilol – Nashr" 2023.- 440 – bet.